

## **O‘ZBEK TILIDAGI FORSCHA O‘ZLASHMALAR XUSUSIDA**

**Bobur Qurbonov,**

Samarqand davlat chet tillar institute

Yaqin sharq tillari kafedراسi mudiri

E-mail: qurvonov@samdchti.uz

Tel: +998973970300

### **ANNOTATSIYA**

*Har qanday tilning taraqqiyoti uning ichki imkoniyatlari bilan bir qatorda, boshqa tillar bilan bo‘lgan o‘zaro ta‘siri orqali ham boyib boradi. Bu jarayonda boshqa tillardan kirib kelgan o‘zlashma (qarz) so‘zlar muhim rol o‘ynaydi. Bunday so‘zlar tilning lug‘aviy boyligini oshiradi, suningdek, madaniy va tarixiy aloqalarning ko‘zgusi bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu maqolada forscha o‘zlashma so‘zlarning tildagi o‘rni, ularning fonetik va semantik o‘zgarish xususiyatlari xususida fikr yuritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** o‘zlashma, o‘zbek, fors, lug‘at, semantik siljish, shakl o‘zgarishi.

## **О ПЕРСИДСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЯХ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ**

**Бобур Курбонов,**

Заведующий кафедрой языков Ближнего Востока

Самаркандского государственного института иностранных языков

Эл. почта: qurvonov@samdchti.uz

Тел.: +998973970300

### **АННОТАЦИЯ**

*Развитие любого языка происходит не только за счёт его внутренних ресурсов, но и в результате взаимодействия с другими языками. В этом процессе заимствованные слова играют важную роль. Они способствуют обогащению лексического запаса языка, а также служат отражением культурных и исторических связей. В данной статье рассматривается место персидских заимствований в узбекском языке, а также их фонетические и семантические изменения.*

**Ключевые слова:** заимствование, узбекский, персидский, лексика, семантический сдвиг, изменение формы.

## **ON PERSIAN LOANWORDS IN THE UZBEK LANGUAGE**

**Bobur Kurbonov,**

Head of the Department of Middle Eastern Languages

Samarkand State Institute of Foreign Languages

E-mail: qurvonov@samdhti.uz

Tel: +998973970300

### **ABSTRACT**

*The development of any language is driven not only by its internal resources but also by its interaction with other languages. In this process, borrowed (loan) words play a significant role. Such words enrich the vocabulary of a language and reflect cultural and historical ties. This article discusses the role of Persian loanwords in the Uzbek language and analyzes their phonetic and semantic transformations.*

**Keywords:** *borrowing, Uzbek, Persian, vocabulary, semantic shift, form alteration.*

### **KIRISH**

Til va jamiyat ajralmas tushunchalardir. Jamiyatda sodir bo‘ladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik o‘zgarishlar bevosita tilga ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, yangi atama va tushunchalarni ifodalash ehtiyoji o‘zlashma so‘zlar orqali qondiriladi. O‘zbek tiliga arab, fors, rus va hozirgi kunda ingliz tillaridan juda ko‘plab so‘zlar kirib kelgan. Masalan, *ilm, aql, tafakkur, adabiyot* kabi so‘zlar arab tilidan, *gul, sabzavot, xona* kabi so‘zlar fors tilidan, *traktor, zavod, sovet, profsoyuz* rus tilidan, *internet, kompyuter, fayl, dizayn* kabi zamonaviy terminlar esa ingliz tilidan o‘zlashgan.

Qarz so‘zlar o‘zbek tilining tarixiy taraqqiyotida muhim leksik qatlamni tashkil etadi. Ular zamon va ehtiyojga qarab ma’nosini o‘zgartiradi yoki yangicha konnotatsiyalarda ishlatiladi.<sup>1</sup> O‘zlashma so‘zlar tilning leksik qatlamini kengaytirishi, yangi sohalarda terminologik bazani shakllantirishi, tarixiy, madaniy aloqalarni aks ettirishi hamda tilni rivojlantirishda muhim manba vazifasini bajarishi sababli ahamiyatlidir<sup>2</sup>. Tilga kirib kelgan har qanday o‘zlashma so‘z fonetik va morfologik jihatdan mahalliylashadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda sodir bo‘ladi:

*Fonetik moslashuv:* So‘zning talaffuzi til fonetik qonun-qoidalariga moslashtiriladi. Masalan: *strategy* → *strategiya*, *telephone* → *telefon*.

<sup>1</sup> O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 1-jild, 34-bet

<sup>2</sup> Qarang: Boqoyev M., 2012. Tilshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 145-bet

*Morfologik moslashuv:* Soʻz oʻzbek tilining grammatik qurilishi asosida oʻzlashtiriladi. Masalan: *fayl* → *fayllar*, *kompyuter* → *kompyuterimiz*, *dizayn* → *dizaynchi*.

Bu hodisa tilning dinamik, moslashuvchan tizimga ega ekanligini koʻrsatadi. Oʻzlashma soʻzlar oʻzbek tilidagi ot, sifat, feʼl shakllarini oladi va bermalol gap tarkibiga kirib boradi.

Oʻzlashgan soʻzlar koʻpincha oʻzining dastlabki maʼnosida emas, balki yangi yoki toraygan/kengaygan maʼnoda ishlatiladi<sup>3</sup>. Bu holatni quyidagi tarzda izohlashimiz mumkin:

*Maʼno torayishi:* Masalan, *reklama* dastlab keng maʼnoda boʻlsa, hozirda koʻproq mahsulot targʻiboti maʼnosida qoʻllaniladi.

*Maʼno kengayishi:* *Virus* dastlab faqat tibbiy termin boʻlgan, hozir esa kompyuter virusi, gʻoya virusi kabi koʻplab kontekstlarda qoʻllaniladi.

*Metaforik ishlatish:* Ayrim oʻzlashma soʻzlar obrazli yoki kinoyali maʼnoda ishlatiladi. Masalan: *xaker* — faqat texnik mutaxassis emas, balki qoidani buzuvchi, tizimni buzuvchi kishi maʼnosida ishlatiladi.

### **MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI**

Oʻzlashma soʻzlar masalasi tilshunoslikda doimiy ravishda oʻrganib kelinayotgan dolzarb yoʻnalishlardan biridir. Bu borada xorijiy va mahalliy tilshunoslar tomonidan turli ilmiy yondashuvlar va klassifikatsiyalar ishlab chiqilgan. Til kontaktlari va leksik oʻzlashuv jarayonlarini ilk bor sistematik tahlil qilgan olimlardan biri amerikalik tilshunos Uriel Vaynrayx boʻlib, uning “*Languages in Contact*” (1953) asarida oʻzlashma soʻzlar sotsiolingvistik kontekstda, madaniy va psixologik omillar asosida tahlil qilingan. Vaynrayx tillararo leksik oʻzlashuvning asosiy omillari sifatida ehtiyoj, ijtimoiy taʼsir va prestijni koʻrsatadi. Shuningdek, Einar Xaugen oʻzining “*The Analysis of Linguistic Borrowing*” (1950) maqolasida oʻzlashma soʻzlarni fonetik, morfologik va semantik darajalarda tahlil qilib, ularni “adaptatsiya darajasi” asosida guruhlaydi.

Mahalliy olimlardan M. Boqoyev “*Tilshunoslik asoslari*” asarida oʻzlashma soʻzlarning fonetik va morfologik moslashuvi jarayonlarini tarixiy misollar asosida yoritadi. U arab, fors va rus tillaridan kirgan soʻzlarning oʻzbek tilidagi oʻrnini tahlil qilib, bu soʻzlar qanday yoʻllar bilan adabiy tilga singganini koʻrsatadi. N. Joʻrayev “*Hozirgi oʻzbek adabiy tili*” nomli asarida adabiy til tarkibidagi oʻzlashma soʻzlarning stilistik rang-barangligiga eʼtibor qaratadi. U badiiy matnlarda oʻzlashma soʻzlarning uslubiy xususiyatlarini ajratib koʻrsatadi va ularning koʻp hollarda muqobil oʻzbekcha ifodalar bilan almashishini tahlil qiladi. Bundan tashqari, OʻzR

<sup>3</sup>Qarang: Joʻrayev N., 2019. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – T.: Oʻqituvchi, 88-bet

FA Til va adabiyot instituti tomonidan tayyorlangan *O'zbek tilining izohli lug'ati, O'zbek tilining imlo qoidalari, Terminologik lug'atlar* kabi amaliy manbalar ham o'zlashma so'zlarning normativ shakllari, ularning rasmiy ishlatilish mezonlarini belgilab bergan muhim ilmiy nashrlardir.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Ma'lumki o'zbek tili tarkibidagi o'zlashmalarning eng ko'p qismini fors tilidan o'zlashgan so'zlar va so'z birikmalari tashkil etadi. Fors tilidan o'zlashgan so'zlarning ma'lum qismi o'z shaklini hamda ma'nosini saqlagan holda ishlatiladi, masalan, *barg, gul, dil, noz, bog', bahor, xazon, chaman, gulshan, sardor, rang, chang, navo, oftob, osmon va hk.* Forscha o'zlashmalarning ba'zilar esa yoki ma'no jihatidan, yoki shakl jihatidan o'zgargan. Masalan, zimiston so'zi aslida qish fasli ma'nosini anglatadigan so'z bo'lib, o'zbek tilida qorong'u, zulmat ma'nosi bilan ishlatiladi. Bu holat tilshunoslikda semantik siljish hodisasi deyiladi.

Biz ushbu maqolamizda shakl va mazmun jihatidan o'zgargan ba'zi bir forscha o'zlashmalarni tahlil qilamiz. Quyida tahlil qilinadigan so'zlar o'zbek tilida juda keng ishlatiladi, ammo, bugungacha ularning kelib chiqishi va asl ma'nosi xususida hech bir ilmiy tadqiqot ishida ma'lumot berilmagan.

1. **“Bachkana”** so'zi. Bu so'z xalq tilida, badiiy asarlarda, shuningdek, ilmiy-adabiy matnlarda keng ishlatiladi. bu so'z o'zbek tilida odatda salbiy ma'noda ishlatiladi va quyidagi ma'nolarga ega: *Mazmunsiz, sayoz, yuzaki:* fikrda, g'oyada chuqurlik bo'lmagan, yengil-yelpi, jiddiylikdan yiroq. *Ko'r-ko'rona:* taqlidga asoslangan, o'ziga xosligi bo'lmagan, madaniyatsiz yoki estetik jihatdan past darajadagi harakat, kiyim, muomala, h.k. *Sun'iy, soxta:* tabiiy emas, bezak uchun ortiqcha pardoziylik yoki keraksiz bezaklar bilan to'ldirilgan narsa yoki so'z. Misol: *Uning bachkana hazillar odamni zeriktiradi.*

Ushbu so'z aslida fors-tojik tilidagi “bachagona” “بچه‌گانه” so'zidan olingan bo'lib, uning asl ma'nosi bolalarga xos narsa yoki katta odamlarga yarashmaydigan fe'l atvordir. “Bacha” so'zining ma'nosi bola, “gona” esa sifat yasovchi qo'shimchadir. Mazkur qo'shimcha so'z oxiridagi harflarning unli yoki undosh ekanligiga qarab “ona”, “yona” va “vona” shakllarida ham kelishi mumkin. Bu shakldagi so'zlarga “pisarona” (o'g'ilbolalarga xos), “duxtarona” (qizlarga xos), “dugona” (bir-biriga mos bo'lgan ikta narsa yoki ikki shaxs), “dustona” (do'stlarcha) va yana yuzlab so'zlarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin. Ta'kidlash joizki fors-tojik tilida “bachagona” so'zi ham ijobiy va ham salbiy ma'noda ishlatiladi. Masalan, bolalar kiyimlari “*liboshoyi bachagona*” deyiladi.

2. **Chorak** so'zi. Ushbu so'z ma'no jihatidan umuman o'zgarmagan, ammo shaklan biroz o'zgargan. Bu so'zning asl shakli “*choryak*” bo'lib, to'rttan bir qismi

degan ma'noni anglatadi. Eron forschasida “*chahoryak*” چهارپك ham deyiladi. Fors-tojik tilida “*choryak*” so‘zidan tashqari “*haftyak*” (yettidan bir qismi), “*hashtyak*” (sakkizdan bir qismi) kabi so‘zlar ham mavjud bo‘lib miqdor ma’nosini ifodalash maqsadida ishlatiladi.

3. ***Hamin qadar*** so‘z birikmasi. Ushbu so‘z birikmasi shakl jihatidan o‘zgarmagan, ammo semantic siljish hodisasi kuzatiladi. Buning asl ma’nosu “shunchagina”, “shu miqdor” bo‘lib biron bir narsaning hajmi, og‘irligi, uzunligini bildiradi. Ta’kidlash kerakki bu so‘z birikmasi to‘liq fors tiliga tegishli emas. Bu sobirikmasi forsha “hamin” (shu, ushbu) va arabcha “qadar” (miqdor) so‘zlaridan tashkil topgan. Umuman olganda, miqdorni ifodalovchi ushbu so‘z birikmasi predmetlar miqdorining kam yoki ko‘p ekanligini belgilash maqsadida ishlatiladi. Ammo, o‘zbek tilida shunchagina, ko‘p emas yoki yetarli bo‘lmagan miqdor ma’nosi bilan ishlatiladi. Misol: *G‘aybullo fan doktori darajasini olgan, ammo bilimi hamin qadar.*

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, o‘zlashma so‘zlar til taraqqiyotining ajralmas bo‘lagi hisoblanadi. Ular nafaqat yangi tushunchalarni ifodalash vositasi, balki tarixiy-madaniy jarayonlarning tilga ta’sirini ko‘rsatadigan vositadir. Biroq, tilshunoslar va adabiyotchilar tomonidan o‘zlashma so‘zlarning me’yoriy ishlatilishi, ularning milliy tilga moslashuvi, ortiqcha begonalashishga yo‘l qo‘ymaslik masalalari ham alohida nazoratda bo‘lishi lozim. Bu esa tilning boyligi va sof milliyligining uyg‘unligida muvozanatni saqlab qoladi.

## ADABIYOTLAR

1. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – T.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 1-jild, 34-bet
2. Boqoyev M., 2012. Tilshunoslik asoslari. – T.: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 145-bet
3. Jo‘rayev N., 2019. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – T.: O‘qituvchi, 88-bet
4. Chorshanbiyevich, Qurbonov Bobur. "On the translation of Persian complements." *Multidisciplinary Journal of Science and Technology* 4.6 (2024): 266-269.
5. Qurbonov, Bobur. "“Majolis un-nafois” tazkirasining ruscha tarjimasida badiiy san’atlar ifodasi." *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*. 2024.
6. Аламов, Шавкатжон. "ФОРСЧА ИЛДИЗЛИ АРАБЧА СЎЗЛАРНИНГ ХУСУСИЯТЛАРИ" *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, vol. 2, no. 6, 2022, pp. 472-476.

7. Alamov, Shavkatjon. "Arab tilidagi forscha iqtiboslar." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 2.3 (2022): 390-395.
8. Муртазоев, Валижон. "Лингвостилистический анализ текстов газет Узбекистана и Египта конца XIX–начала XX века." *Зарубежная лингвистика и лингводидактика* 2.5/S (2024): 465-471.
9. Murtazoyev, V. X. "ARAB TILIDAGI GAZETALAR SARLAVHALARI TAHLILI." *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences* 3.5 (2023): 300-305.